KUCHLI IQTISODIYOT VA KUCHLI MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGI DAVLAT XIZMATCHILARI FAOLIYATINING YETAKCHI TAMOYILI SIFATIDA

Ismailov Dilshod Baxriddinovich,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Samarqand viloyati bo‘limi rahbari
E-mail: dilshodismailov06@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’naviyat tushunchasi va uning qamrov darajasi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Ma’naviyat inson botiniy va zohiriy olamining tub negizini, davlat xizmatchisi faoliyatining ajralmas qismini tashkil etishi haqida g‘oyalar ilgari surilgan. Kuchli iqtisodiyot va

kuchli ma’naviyatning uyg‘unligi barqaror jamiyat hamda rivojlangan iqtisodiy-madaniy muhit yaratilishining omili hisoblanadi. Bunda insonlar iqtisodiy taraqqiyotning natijasi sifatida ta’lim va o‘zini-o‘zi rivojlantirish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishi to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kuchli ma’naviyat, barqaror rivojlanish, uchinchi renessans, globallashuv, intervensiya, rentabel, kompetensiya va sog‘lom ma’naviy raqobat.

Annotation: This article discusses the concept of spirituality and its scope. Ideas were put forward that spirituality is the fundamental basis of the inner and outer world of a person, an integral part of the work of a civil servant. The combination of a strong economy and a strong spirituality is a factor in creating a stable society and a developed economic and cultural environment. It states that people will have more opportunities for education and self-development as a result of economic development.

Key words: strong spirituality, sustainable development, third renaissance, globalization, intervention, profitability, competence and healthy spiritual competition.

Prezident Sh.Mirziyoyev ma’ruzalarida “Bizga bugun qanday rahbar kadrlar kerak?”, degan savolga ham aniq javoblar bor: “Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermaydi”. Zero yosh rahbar kadrlardan yangicha fikrlash, mustaqil fikrlash, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, ilg‘or boshqaruv usullarini qo‘llay olish, vatanparvarlik, halollik singari aniq fazilatlar kutilmoqda.

“Bizga bugun qanday rahbar kadrlar kerak emas?”, degan savolga ham aniq javoblar bor. Masalan, “Xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, el-yurtimiz osoyishtaligi va jamoat tartibini saqlashga, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga qurbi yetmaydigan, loqayd va befarq shaxslarga rahbarlik lavozimlarida mutlaqo o‘rin yo‘q”, degan fikrga ko‘ra xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga qurbi yetmaslik, loqaydlik va befarqlik sifatlari bor nomzodlar Yangi O‘zbekistonning yosh rahbarlari safida tura olmaydilar. Chunki bunday shaxslar Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlay olishmaydi.

Yangi O‘zbekistonda rahbarlikka nomzodlarni tanlash, tarbiyalash va saralashda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev asarlarida, chiqishlarida, hududlarda qilgan ma’ruzalarida ta’riflangan kuchli ma’naviy axloqiy fazilatlarni ilmiy o‘rganish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Yangi O‘zbekiston barcha sohalarda yangilanishni taqozo qiladi. Shu jumladan, “ma’naviy yangilanish”ni ham. “Ma’naviy yangilanish” nima degani? Bu joriy ma’naviyatimiz mazmunini “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mazmuni bilan boyitishni talab qiladi. Yangicha, ya’ni yangi strategiya talablari asosida yashashga, yangicha ishlashga o‘rgatadi. Eski stereotiplardan voz kechishni talab qiladi. Bu esa eng avvalo, bizga “ma’naviyat” kerak, degan savolga javob berishni talab qiladi. Bu savolga javob “ma’naviyat” so‘zining oldida turgan so‘z orqali sifatlanadi. Yangi O‘zbekistonni barpo etishning ikki ustuni – kuchli iqtisodiyot va kuchli ma’naviyat. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston fuqarolari va yoshlari – kuchli ma’naviyat sohib va sohibalari bo‘lishlari talab qilinadi.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “ma’naviyat” tushunchasi “inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. “Ma’naviyat” atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y-basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir”, degan ta’rif bor. Shuningdek, ma’naviyatli jamiyatda aql, sog‘lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo‘ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi, deyiladi.

“Jahon falsafasi qomusi”da “ma’naviyat (arab. ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa; insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki

dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezoni” tarzida tavsiflanadi.

O‘tmishda bir xalqni o‘ziga tobe qilgan dushman, avvalo, uni o‘zligi, tarixi, madaniyati va ma’naviyatidan judo qilishga kirishgani bejiz emas. Zero, ma’naviyati zabt etilgan mamlakatda o‘z tartiblarini o‘rnatish mustamlakachilarning azaliy, tarix sinovidan o‘tgan an’anaviy usullaridan biri bo‘lib keldi. Shu yo‘l bilan ma’naviy istilochi ma’nan qashshoq xalqni bora-bora o‘ziga singdirib yuboradi. Buning uchun o‘z mafkurasi va g‘oyalarini joriy etib, “ma’naviy asir” qilib, kun bermaslik siyosatini tutadi. Bu haqda bundan 2700 yil oldin yashagan qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy “... agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixi, madaniyatidan mahrum eting, ma’naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi”, degan edi.

Globallashuv sharoitida axborot xurujlarining oqibatlari muayyan mintaqa va mamlakat aholisi ongi va qalbini zabt etishda asosiy va eng katta rentabelli ekspansiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Buning oqibatida mazkur intervensiyaning asl ma’naviy qadriyatlarni tanazzul sari yetaklab, har bir xalq va millatning o‘z madaniyati, ma’naviyati va qadriyatlarini inkor etishi orqali yoshlar ongida bir-biriga mutlaqo zid bo‘lgan dunyoqarashni shakllantirayotganligi tashvishlidir. Shu bois “Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi uchun biz ma’naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta’sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o‘ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur”. Ana shunda har bir O‘zbekiston fuqarosining o‘z davlatidan, sog‘ligidan, oila, bolalaridan, ishidan, qilgan mehnatidan, hokimiyatdan, mahallasidan, o‘zining jamiyatdagi o‘rnidan, hurmat-e’tiboridan roziligiga erishiladi. Zero, har bir insonning baxtiyorlik tuyg‘usi uning ehtiyojlari qondira borilishi darajasi bilan to‘g‘ri proporsional natijadir.

Prezident Sh.Mirziyoyev mamlakatda inson kapitalini oshirishga xizmat qiladigan sohalarda keng ko‘lamli islohotlarni boshlagani bejiz emas. Xususan, Prezident 2020-yilning sentyabr oyida “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan ma’ruzasida mamlakatimiz oldiga “Uchinchi Renessans davri poydevorini yaratish va uni milliy g‘oya sifatida ko‘rishni strategik vazifa”, etib belgiladi (ma’lumki, Markaziy Osiyoda “musulmon renessansi”, deb ham ataladigan “Birinchi Renessans” davri IX-XII asrlarda bo‘lib o‘tgan, “Ikkinchi Renessans” davri esa temuriylar saltanatida san’at va fanning gullab-yashnagan davrida boshlanib, XIV-XVI asrlarda kuzatilgan)”.

Darhaqiqat, atoqli rus tarixchi olimi L.Gumilyov aytganidek, “Turkistonda fan, madaniyat eng yuqori darajaga ko‘tarilgan bir paytda franklar va normanlar vizantiyaliklar va arablardan ilohiyot va hammomda yuvinishni endigina o‘rganishayotgan edilar”.

Bugungi kunda “Uchinchi Renessans davri poydevorini yaratish va uni milliy g‘oya sifatida ko‘rish” milliy ma’naviyatimizni, xalqimizning ikki renessansni yaratgan fazilatlarini tiklashga da’vat bo‘lib yangradi. Bu da’vat milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviyat va ma’rifat ishlari, loyiha, dasturlari “Uchinchi Renessans davri poydevorini yaratish va uni milliy g‘oya sifatida ko‘rish”ning tarixi, mohiyati, natijasini xalqqa, yoshlarga sodda, xalqchil tushuntiradi. Ular amalga oshsa, qanday baxtli bo‘lishimizni “ko‘rsatadi”. Tushungan, istiqbolni ko‘rgan xalq – g‘oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. Shuning uchun ham ma’naviyat – eng ta’sirchan qurol. Shuning uchun ham “Ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi”.

Afsuski, uzoq yillar iqtisodiyot bilan ma’naviyatni bir-biriga qarshi qo‘yib tushunib, tushuntirib kelindi. Iqtisodiyot bilan ma’naviyat – jism bilan jon bir-biridan sun’iy, mexanik ravishda ajratib tashlangan edi. Yangi O‘zbekistonda mana shu organik birlik – bir-birlaridan sun’iy ravishda ajratilgan jism bilan jon birlashdi. Bu birlik naqadar muhimligiga milliy tariximizda misollar ko‘p. Masalan, biz Ikki Renessansni qurgan va ko‘rgan millatmiz. Ikki Renessansda ham masala “Avval iqtisod, keyin siyosatmi?” yoki “Avval siyosat, keyin iqtisodmi” dilemmasi o‘rtaga chiqmagan. Ikkalasi birga yuksalgan. Bugun ko‘tarilgan “Yangi O‘zbekiston = kuchli

iqtisodiyot+kuchli ma’naviyat” formulasi mana shu ikki qudratli kuchni yaxlit tushunishni, ko‘rishni, baholashni va birlashtirishni talab qilmoqda.

Bahovuddin Naqshband bolaning oiladayoq kasb-hunarga yo‘naltirilishi zarurligini ta’kidlagan. Ulug‘ xazratning irodasiga ko‘ra, madrasa ta’limi uchun faqat biror-bir kasbni puxta egallab olgan yoshlargina qabul qilinganlar. Bahovuddin Naqshband “hunarga aylanmagan bilimlar samarasiz, odamlarga va chin e’tiqodga xizmat qilmaydi”, deb hisoblagan.

Alisher Navoiy mehnatga mehr qo‘ygan odamning dastavval bir sohada yetuklik maqomiga erishuvi ustida g‘amxo‘rlik qilgan. Bunday maqsadli harakatni bejiz qilmagan. Chunki zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida inson psixologiyasida ro‘y beradigan qiziq bir holat aniqlangan. Kishi biror-bir sohada yetuklik darajasiga erishib, keng jamoa orasida uning sohada eng birinchiligi e’tirof etilsa, u endi boshqa sohalarda ham birinchilikni qo‘lga kiritishga tabiiy ravishda intiladi.

Kuchli ma’naviyatimizning tarixda qanday rol o‘ynaganini “Biz ergashuvchi millat emas, ergashtiruvchi millat bo‘lganmiz”, degan xulosa ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ya’ni kuchli ma’naviyatga ega odamning ham, millatning aqli ham kuchli bo‘ladi. U boshqalarning ta’siriga berilib, boshqalarga ergashib ketmaydi. Aksincha, o‘z milliy ma’naviy potensialini tiklab, resurslarini o‘rganib, rivojlantirib, qo‘llab, boshqalarga ma’rifiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘ziga ergashtiradi.

Kuchli ma’naviyat vijdonni, burchni, korrupsiyaga qarshi pozitsiyani, ijro intizomini kuchaytiradi. Iqtisodiyotni sog‘lom va kuchli qiladi. U birlamchi energiya – xalqning bilim, kompetensiyalari (inson kapitali)ni oshirib, o‘zligi, g‘ururini, vijdonini kuchaytirib, safarbar qilib, ikkilamchi energiyaga – harakatga, ongli, samarali mehnatga aylantiradi.

Kuchli ma’naviyat tushunchasini tizimli tahlil asosida o‘rganadigan bo‘lsak, masalaning murakkabligi ob’yektlarning ko‘p o‘lchamliligi, nochiziqliligi va ko‘pbog‘lamliligi bilan ahamiyatlidir. Bu barqaror, ya’ni statik, o‘zgarmas holatga nisbatan aksincha o‘zgarishlarni o‘ziga qabul qila olishi bilan afzallik kasb etadi. Bunda nafaqat azaliy an’analarga qat’iy rioya qilish, balki davr o‘zgarishlarini o‘zida aks ettira olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Har bir ob’yektning konseptual va matematik modeli ishlab chiqiladi. Samaradorlikni belgilan uchun har qanday tushuncha yoki an’ana, urf odat, qadriyatning afzalliklarini byelgilovchi dastabki barqaror holati va kuchli ma’naviyat tushunchasi asosida o‘zgargan holat o‘zgaruvchilarining o‘zgarish dinamikasini aniqlash mumkin.

“Kuchli” so‘zi bu – sifat. U jismoniy qobiliyatli, kuch-quvvati nisbatan ortiq, baquvvat, sog‘lom va yaxshi rivojlangan, katta quvvatga ega bo‘lgan, quvvatli, baquvvat, imkoniyati zo‘r, qudratli, ta’sir darajasi yuqori, tez ta’sir qiladigan, yuz berish darajasi yuqori, qattiq, shiddatli, o‘z ish-hunarini yaxshi biluvchi, qobiliyati zo‘r, talantli, to‘q, yuqori darajali, degan ma’nolarni anglatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilar ekanmiz, ma’naviyat faqat bilim bo‘lib qolmasligi kerak. Buning uchun yoshlarning vijdonini tarbiyalash zarur. Aks holda eng chiroyli, oliyjanob, bunyodkor ma’naviyat ham “ishlamaydi”. Bilim bo‘lib qolaveradi. So‘z va amal bog‘lanmaydi. Jur’atsizlik, boqimandalik va loqaydlik jamiyatni egallab oladi. Yoshlarda, jamiyatda ijtimoiy faollik yo‘qolib, ikkilanuvchanlik, beqarorlik kuchayadi. Xulqqa ko‘chmagan, konvertatsiya qilinmagan ma’naviyat esa kuchsiz, ojiz ma’naviyat bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent. 55-bet.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. Konimex – Mirzoqush. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Ikki jildlik, I jild. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, “Ma’naviyat” nashriyoti. Toshkent, 2023.
4. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-zbekiston-respubl-31-08-2017

5. Rafiqov Q. Shaxsning tarixdagi roli yoxud Shavkat Mirziyoyev fenomeni va uning O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayonlarga ta’siri haqida.// “Ishonch” gazetasi, 2023 yil 24 iyul, 89-son.

6. Гумилёв Л. Древние Тюрки. М.: 1993.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madaliyev va boshqalar tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. Elektron shakli.